

YOSHLAR OVOZI

BIZ – KELAJAK BUNYODKORIMIZ!

Ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy,
adabiy-badiiy
gazeta

#30 (16684)
2025–yil 30–iyul,
chorshanba



/yoshlarovozi

/yoshlarovozi

/yoshlarovozi.uz

Gazeta 1925–yildan chiqq boshlagan



ANDIJONDA DXX KUBOGI YAKUNLANDI

Andijon viloyatida “Futbol va mini futbol bo'yicha DXX kubogi” musobaqalarining hududiy bosqichi o'tkazildi. “Besh tashabbus olimpiadasi” doirasida tashkil etilgan musobaqalar viloyat yoshlari hayotida unutilmas voqeaga aylandi. Musobaqaga 62 mingdan ziyod futbolsevar yigit-qiz jalb etilib, yangi iqtidor va sadoqatli futbol muxlislari kashf etildi.

Musobaqaning yakuniy bosqichi bayramona ruhda, yuqori saviyada tashkil etildi. Hayajonli lahzalar, murosasiz va qiziqardi final bahslariga 15 mingdan ortiq tomoshabin guvoh bo'ldi.

Finalda Andijon shahrining Gumbaz hamda Oltinko'l tumanining Mirobod mahallasi jamoalari maydonga tushdi. Yakunda oltinko'lliklar qo'li baland kelib, musobaqaning respublika bosqichiga yo'llanmani naqd qildi.

Shuningdek, mini futbol bo'yicha yigitlar o'rtasidagi bahslarda Oltinko'l tumani, qizlar bellashuvlarida Izboskan tumani jamoasi g'olib bo'ldi.

Taqdirlash marosimi hamda yulduzlar ishtirokidagi gala-konsert musobaqaning eng yorqin lahzalariga aylandi.

Xalq ishonchi

YETAKCHIGA NIMA
BERADI?

➔ 2-bet



“BU MENI CHO'CHITMADI...”

Nodirbek Soyibnazarov O'zbekiston tumanidagi Turkiston mahallasi yoshlar yetakchisi sifatida ish boshlaganda mahallada ijtimoiy muhit yaxshi bo'lmagani. Huquqbuzarlik sodir etishga moyilligi bor yoshlar ko'pchilikni tashkil qilgan, jazoni ijro etish muassasasidan qaytganlar ham bor edi. Bu holat mahalladagi ijtimoiy muhitni izdan chiqarish, yoshlar orasida xavotir va ishonchsizlik uyg'otishi mumkin edi. Biroq yetakchi bu vaziyatdan cho'chimadi. Aksincha, u faoliyatini jamiyatning eng muammoqli qatlamidagi yoshlar bilan individual ishlashdan boshladi.

– Mahalladagi yoshlar orasida ishsizlik, befarqlik va ijtimoiy tushkunlik hukm surardi, – deydi Turkiston mahallasi yoshlar yetakchisi Nodirbek Soyibnazarov. – Ayniqsa, jinoyat sodir etishga moyil, jazoni ijro etish muassasalari-dan yaqinda ozod qilingan yigitlarning borligi meni tashvishga soldi, ammo cho'chimadim. Aksincha, ular bilan alohida ishlash zarurligini chuqur angladim. Chunki ular hayotdan umid uzmasligi, jamiyatdan begonalashmasligi kerak edi. Men har bir yoshga, avvalo, inson sifatida yondashdim. Kim bo'lishidan qat'i nazar unga yana bir imkoniyat berish kerak deb hisobladim. Agar tinglay olsangiz, chin dildan ishonch bildirsangiz, har qanday yoshning hayotini o'zgartirish mumkin.




O'ZBEKISTON KUCHLI UCHLIKDA!

O'zbekiston milliy robototexnika jamoasi Xitoy Xalq Respublikasining Sanya shahrida o'tkazilgan “Sanya WRC 2025” xalqaro musobaqasida ishtirok etdi.

Musobaqada dunyoning turli davlatlaridan 2000 dan ortiq ishtirokchi yangi innovatsion texnologiyalarini global maydonda sinovdan o'tkazdi.

Bizning jamoa musobaqaning birinchi kunida 6 ta o'yinning barchasida g'alaba qozonib, yakunda 3-o'rinni egalladi. Shuningdek, vakillarimiz texnik mahorati, jamoaviylik va innovatsion yondashuvi bilan “Excellence Award” mukofotiga loyiq ko'rildi.

1 -AVGUSTDAN ➔ 2-bet



BYUDJET TASHKILOTLARI XODIMLARI VA TALABALAR STIPENDIYALARI 10 FOIZGA OSHIRILADI

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ish haqi, pensiyalar, stipendiyalar va nafaqalar miqdorini oshirish to'g'risida” gi farmoniga asosan 2025–yil 1-avgustdan davlat byudjeti tashkilotlarida ishlovchi xodimlarning ish haqi hamda talabalar stipendiyasi miqdori o'rtacha 10 foizga oshiriladi. Bu orqali aholi daromadlarini oshirish, turmush darajasini yaxshilash va ijtimoiy himoyani mustahkamlash maqsad qilingan.

Shuningdek, shu sanagacha amalda bo'lgan mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori 2025–yil 1-avgustdan boshlab 1 271 000 so'm etib belgilandi.

BOG'ZORDA ISHSIZLIKKA BARHAM BERILADI



➔ 3-bet

Davlatimiz rahbari tomonidan 2025–yilni mamlakatimizda “Yoshlar ishsizligiga barham berish yili” deb ta'kidlanishi yoshlarga qaratilayotgan ulkan e'tibor va qat'iy siyosatning ifodasidir. Shu yil 14-fevral kuni Prezident Shavkat Mirziyoyev bilan o'tkazilgan tarixiy uchrashuvda berilgan topshiriqlar mamlakat miqyosida yangi, tizimli islohotlarning boshlanishiga zamin yaratdi. Bu islohotlar natijasi Termiz shahridagi Bog'zor mahallasi misolida yaqqol ko'rinmoqda.

MAHALLIY YOSHLAR SALOHİYATI

Bog'zor mahallasida 1564 nafar yosh istiqomat qiladi. Hududda ularning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish va o'zini rivojlantirishi uchun zarur sharoitlar yaratilgan. Mahallada 6 ta maktabgacha ta'lim muassasasi, 1 ta kutubxona, 11 ta vorkaut sport yosh istiqomat qiladi. Hududda ularning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish va o'zini rivojlantirishi uchun zarur sharoitlar yaratilgan. Mahallada 6 ta maktabgacha ta'lim muassasasi, 1 ta kutubxona, 11 ta vorkaut sport

OLTINCHI OMMAVIY qirilish

➔ 3-bet

EKOLOGIK INQIROZ

S o'nggi yillarda ekologik vaziyat og'irlashib bormoqda va ilmiy doirada bu jarayon “Oltinchi ommaviy qirilish” deb nom oldi. Shu kungacha yer yuzi 5 marotaba bunday holatni boshidan kechirgan.

Ilk ommaviy qirilish Ordovik-silur davriga to'g'ri kelib, unda dengizdagi tirik organizmlarning 85 foizi qirilib ketgan. Ikkinchisi Devon davriga (paleozoy erasining to'rtinchi davri) to'g'ri kelib, yer barcha mavjud avlodlarning 50 foizini va barcha tirik oilalarning 20 foizini yo'qotgan. Uchinchi ommaviy qirilish esa hayvonlarning eng katta yo'qolishi hisoblanadi. Ushbu Katta Perm yo'qolishi 250 million yil oldin sodir bo'lgan. Natijada quruqlikdagi barcha hayvonlarning 70 foizi, dengiz jonzorlarining esa 96 foizi nobud bo'lgan. Bundan 50 million yil o'tgach, navbatdagi qirilish yuz berib, yana bir bor dengiz hayvonlarining qirilib ketishiga sabab bo'lgan. Beshinchi ommaviy qirilish esa eng mashhuri hisoblanadi. Bundan 65 million yil oldin sodir bo'lgan bu voqeada dinosavrlar butunlay yo'q bo'lib ketgan.

Sanab o'tilgan qirilishlarning har biri hayotning aksariyat turlarini yo'q qilgan bo'lsa, bugungi oltinchi ommaviy qirilish insoniyat ta'siri orqali hayotning bir nechta qismini yo'q qilib yuborish arafasida turibdi.

YOSHLAR BIZNESI UCHUN KENG YO'L OCHILMOQDA!



Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan hududlarda yoshlar tadbirkorligi va ularning bandligini ta'minlashga xizmat qiluvchi yangi, samarali qo'llab-quvvatlash tizimi joriy etildi.

Shu maqsadda Qoraqalpog'iston Respublikasi va Buxoro viloyatida Mahallalarda yoshlar bilan ishlash masalalarini muvofiqlashtirish bo'yicha respublika komissiyasi a'zolari ishtirokida hududlardagi yosh tadbirkorlar bilan ochiq muloqotlar o'tkazildi.

Muloqot davomida yoshlar bilan bevosita suhbatlar tashkil etilib, ularning biznes g'oyalari shakllantirish va moliyalashtirish bo'yicha aniq choralar belgilab olindi. Jumladan, “Aloqabank”, “Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish jamg'armasi”, “Yoshlar Ventures” venchur jamg'armasi va boshqa banklar orqali loyihalarni qo'llab-quvvatlash mexanizmlari ishlab chiqildi.



Cookie fayllar

SIZ ULARGA ROZILIK BERGANMISIZ?

➔ 4-bet

Turli internet saytlarida, ayniqsa, onlayn do'konlarda “Biz cookie fayllardan foydalanamiz” yoki “Cookie fayllarini qabul qilasizmi?” kabi ekranolmalarini ko'rgandirsiz. Ko'pchiligimiz bu nimani anglatishini bilmasak ham, g'ashimizga tegmasin deb “Roziman” tugmasini bosgan bo'lsak kerak.


Cookie fayllari foydalanib turgan saytingizga boshqa safar kirganingizda sizni tanib olishi uchun kerak bo'ladi. Unix operatsion tizimida dasturlararo ma'lumot tashuvchi va muloqot o'rnatuvchi “magic cookies” dan kelib chiqqan. 1994–yilda esa Netscape vebdasturchisi Lou Montulli HTTP cookie fayllarini ishlab chiqdi.



NOGIRONLAR UCHUN ISH O'RINLARINI ELEKTRON ZAXIRALASH TIZIMI JORIY ETILADI

2025-yil 1-avgustdan nogironligi bo'lgan shaxslarni ishga joylashtirishni yengillashtirish va tizimlashtirish maqsadida "Yagona milliy mehnat tizimi"da elektron zaxiralash mexanizmi yo'lga qo'yiladi. Bu orqali tashkilotlar o'zlari joylashgan hududdagi nogiron shaxslarning jismoniy holati, malakasi va imkoniyatlarini hisobga olgan holda ular uchun ish o'rinlarini maqsadli tarzda rezervga qo'yishlari shart bo'ladi.

Yangi tartib bandlik sohasida raqamlashtirishni chuqurlashtirish, nogiron fuqarolar uchun adolatli mehnat imkoniyatlarini yaratish va ish beruvchilar bilan ular o'rtasida to'g'ridan to'g'ri aloqani ta'minlashga xizmat qilishi nazarda tutilgan. Bu tartib O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 8-maydagi "Nogironligi bo'lgan shaxslarning bandligini ta'minlash tizimini takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmonida belgilangan.



DAVLAT XIZMATI LAVOZIMLARIGA TANLOV O'TKAZISHNING YANGI TARTIBI JORIY ETILADI

2025-yil 1-avgustdan boshlab qonunchilikka muvofiq davlat fuqarolik xizmati lavozimlarini egallash bo'yicha tanlov o'tkazishda quyidagi tartiblar joriy etiladi:


- respublika, hududiy va tuman (shahar) darajasidagi tashkilotlardagi boshqaruv va yordamchi guruhlariga oid vakant lavozimlar uchun tanlovlar faqatgina Davlat fuqarolik xizmatchilari vakant lavozimlarining yagona portali orqali amalga oshiriladi;
- test sinovlari davlat xizmatchilarini sinovdan o'tkazish moduli orqali maxsus jihozlangan xonalarda yoki masofaviy onlayn proktoring tizimi orqali o'tkaziladi.

QABUL KVOTALARI

2025-2026-O'QUV YILI UCHUN
OLIVY TA'LIM MUASSASALARIGA AJRATILGAN KVOTALAR:

BAKALAVR BO'YICHA:


Davlat granti asosida – 35 500 ta joy
Kunduzgi ta'lim shakli – 148 400 ta joy
Kechki ta'lim shakli – 28 732 ta joy
Masofaviy (onlayn) ta'lim – 18 195 ta joy



MAHALLIY MEHEL TEKNOLOGIYALARIGA MALAKA OSHIRISH XARAJATLARI UCHUN KOMPENSATSIYA BERILADI

1-avgustdan mahalliy mebel texnologlari o'z sohalari bo'yicha rivojlangan xorijiy mamlakatlardagi nufuzli tashkilotlardan malaka sertifikatlarini olish uchun sarflagan xarajatlarning 50 foizi qoplab beriladi. Bu chora-tadbir mahalliy mutaxassislarning bilim va ko'nikmalarini oshirish, sohada zamonaviy texnologiyalarni joriy etishni rag'batlantirishga qaratilgan.

Mazkur normalar Prezidentning "Mebel va yog'ochsozlik sanoatining rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga (PQ–193-son, 2025-yil 27-may) asosan joriy etilmoqda.



OILAVIY NODAVLAT BOG'CHALARGA BOLA TA'MINOTI UCHUN KOMPENSATSIYA BERILADI

1-avgustdan e'tiboran oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlariga qabul qilingan ayrim toifadagi oilalar farzandlari uchun Davlat byudjeti hisobidan kompensatsiya ajratish tartibi joriy etiladi. Ya'ni:

- ota-onalar badalining 40 foizi davlat tomonidan qoplab beriladi;
- kompensatsiya faol qatnashayotgan bolalar soniga asosan hisoblanadi.

Bu imtiyoz maktabgacha ta'lim tashkiloti bilan vazirlik o'rtasidagi bitimda belgilangan o'rinlarning 15 foizidan oshmasligi kerak. Mablag'lar oilaviy bog'chaning hisobvarag'iga mavjud subsidiyalar bilan birga o'tkazib boriladi.

Bu tartib O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 14-iyuldagi "Ilk rivojlanish markazlari faoliyatini bosqichma-bosqich yo'lga qo'yish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bilan maktabgacha ta'limga to'liq qamrab olinmagan bolalar uchun teng imkoniyatlar yaratish va kam ta'minlangan oilalarning ta'lim sohasidagi yukini yengillashtirish maqsadida joriy etilmoqda.

Xalq ishonchi



"YOSHLAR BALANSI"GA 100% QAMROV

Yetakchi "Yoshlar balansi" platformasida barcha yoshlarning to'liq raqamli monitoringini yo'lga qo'ydi. Jumladan, joriy yilda platformaga 100 foizlik qamrovga erishdi. Bu yoshlarning ijtimoiy holatini baholash, muammolarini tezda aniqlash va yechim topish imkonini berdi. Ushbu tizim orqali:

- 12 nafar yosh kasb-hunarga o'qishga yo'naltirildi;
- 10 nafar yosh bandlik dasturlari orqali ishga joylashtirildi;
- 12 nafariga mikrobiznes loyihalari asosida tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yish uchun imtiyozli kredit ajratildi;
- 4 nafar yosh "Yoshlar daftari" orqali psixologik yordam oldi.

"Yashil"	"Sariq"	"Qizil"
toifa:	toifa:	toifa:
298	199	13
nafar	nafar	nafar
Mahalla drayveri: kichik tadbirkorlik va xizmat ko'rsatish.		



IJTIMOY INTEGRATSIYA MAYDONI

Nodirbek Soyibnazarovning tashabbusi bilan mahallada sport, musiqa va san'at yo'nalishlarida mashg'ulotlar o'tkaziladigan markaz tashkil etildi. Markazda har hafta ochiq muloqot kechalari hamda davra suhbatlari o'tkazilib, yoshlarning jamiyatlardagi o'rnini anglashiga, islohotlarga ishonchini oshirishga xizmat qilmoqda. Bundan tashqari, stol tennis, shaxmat, shashka, vorkaut va armrestling bo'yicha havaskorlik to'garaklari yo'lga qo'yildi. To'garak mashg'ulotlariga 200 nafardan ziyod yoshlar jalb qilindi.

"Tadbirlarni tashkil etish va o'tkazish" hamda "Yosh ssenariychilar" to'garaklari faoliyati orqali yoshlarning sahnalashtirish, ommaviy tadbirlar ssenariysini yaratish bo'yicha ijodiy salohiyatini rivojlantirish maqsad qilingan. Ularda psixologik treninglar ham o'tkazilib, yoshlarning nutq madaniyati, sahnaviy ko'nikma va jamoa bilan ishlash qobiliyati shakllantirilmoqda.

Qahramonimiz tuman hokimligi, bandlik bo'limi, "Ishga marhamat" monomarkazi, kasb-hunar maktablari bilan hamkorlikda 2023–2025-yillarda jami 80 dan ziyod yoshni ishga joylashtirishga erishdi.

Turkiston mahallasida 2022-yilda yoshlar bilan bog'liq 13 ta huquqbuzarlik qayd etilgan bo'lsa, 2024-yilda mahalla jinoyatchilikdan xoli hududga aylandi.

YETAKCHIGA NIMA BERADI?

BIZ TANLAGAN YO'L...

Yetakchi, avvalo, yoshlar ishonchini qozondi. Ochiq suhbat, psixologik maslahatlar, oila a'zolari bilan uchrashuvlar orqali ularni anglashga harakat qildi. Ular holatini tahlil qilib, 3 toifaga ajratdi:

- jazoni ijro etish muassasasidan qaytganlar;
- huquqbuzarlikka moyil yoshlar;
- bo'sh vaqti ko'p, ishsiz va ijtimoiy himoyaga muhtoj yoshlar.

Bu guruhlarda asosida individual "reabilitatsiya kartalari" ishlab chiqildi. Har bir yigit uchun kasbga yo'naltirish, oilaviy muhitni mustahkamlash bo'yicha reja tuzildi.

– Mahalla faollari, nuroniylar, xotin-qizlar faoli bilan hamkorlikda yoshlar uchun sog'lom ijtimoiy muhitni tiklashni o'z oldimizga birinchi darajali vazifa qilib qo'ydik, – deydi yoshlar yetakchisi. – Chun-ki sog'lom muhit bo'lmasa, sog'lom fikr va sog'lom harakat ham bo'lmaydi. Yoshlar orasida ishonch muhitini shakllantirish eng murakkab, lekin eng zarur ishdur. Men ularga nasihatgo'y emas, do'st bo'lishga harakat qilaman. Bugun ular men bilan ochiq gaplashadi, o'z dardi, orzusi, muammolari bilan murojaat qiladi. Bu biz tanlagan yo'l to'g'ri ekanini isbotlaydi.



YOSHLAR KUTUBXONASI

Nodirbekning tashabbusi bilan 2022-yilda 1345 ta kitob fondiga ega "Turkiston mahallasi yoshlar kutubxonasi" tashkil etildi. Bu yerda "Yosh kitobxonlar" to'garagi faoliyat olib bormoqda. Kutubxonaga 7 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan 150 nafardan ortiq yoshlar qamrab olingan. Ulardan tushayotgan taklif va istaklar asosida kutubxona fondi yangi adabiyotlar bilan muntazam boyitilmoqda.

2024-yilda yoshlar yetakchisi homiylar va yoshlar ishtirokida "Yoshlar sport maydonchasi"ni barpo etdi. Mahallaning ichki imkoniyatlari hisobiga yaratilgan maydon yuzlab yoshlarni sog'lom turmush tarziga jalb qilmoqda.

2024-yilda Nodirbek "Yilning eng namunali mahalla yoshlar yetakchisi" tanlovining respublika bosqichida munosib ishtirok etdi.

TURKISTON MAHALLASI BALANSI:

Aholi soni:
2370 nafar;
Yoshlar soni:
512 nafar;
Ayol-qizlar:
250 nafar.



HARAKATLAR REJASI

Nodirbek Soyibnazarov mahalla yoshlarini jamiyatning faol qatlamiga aylantirish maqsadida harakatlar rejasini ishlab chiqdi.

Ijtimoiy xavfli toifaga mansub yoshlarga qaratilgan "Qayta ishonch" dasturi. Mahallada "qizil" toifadagi yoshlar bilan Nodirbek individual reabilitatsiya suhbatlarini kuchaytirish, har birining hayotiy yo'nalishini o'zgartirishga xizmat qiluvchi mentorlik tizimini joriy qilishni rejalashtirgan.

Migratsiyadagi yoshlar bilan muntazam ishlash. Nodirbek bunday yoshlar bilan aloqa va integratsiyani mustahkamlashni maqsad qilgan. Har chorakda videoaloqa orqali onlayn muloqotlar tashkil etiladi. Rejaga ko'ra, bu yil xorijdagi 34 nafar yoshdan kamida 10 nafari yurtga qaytarilib, bandlik va ta'limga yo'naltiriladi.

"Yoshlar klubi" faoliyatini kengaytirish. Yoshlar uchun muntazam faoliyat yurituvchi ijtimoiy platforma zarur. Shuning uchun mahalladagi "Yoshlar klubi" negizida psixolog, yurist va mentor doimiy xizmat ko'rsatadigan ijtimoiy-psixologik markaz tashkil etiladi. Iqtidorli, ammo ijtimoiy himoyaga muhtoj 20 nafar yosh homiylik mablag'lari orqali qo'llab-quvvatlanadi.

"Yoshlar kutubxonasi"ni axborot-mar'ifat markaziga aylantirish. 2025-yil oxirigacha kutubxona fondi 2000 kitobgacha yetkaziladi, raqamli kutubxona va elektron o'quv zonasi tashkil etiladi. Har chorakda "Kitobxon yoshlar" tanlovi o'tkazilib, faol kitobxonlar rag'batlantiriladi.

“YOSHLAR ORASIDA ISHONCH MUHITINI SHAKLLANTIRISH ENG MURAKKAB, LEKIN ENG ZARUR ISHDIR. MEN ULARGA NASIHATGO'Y EMAS, DO'ST BO'LISHGA HARAKAT QILAMAN.



MIGRATSIYADAGI YOSHLARGA E'TIBOR

Turkiston mahallasi balansida, 2025-yil holatiga ko'ra, 34 nafar migratsiyadagi hamda 10 nafar migratsiyadan qaytgan yoshlar mavjud. Bu raqamlar o'z-o'zidan ijtimoiy yondashuvni, individual ko'makni talab qiladi. Migratsiyaga ketayotgan yoki qaytgan yoshlar ko'pincha jamiyatga qayta moslashishda qiyinchiliklarga duch keladi, bo'sh vaqtining to'g'ri tashkil etilmasligi esa ularni salbiy muhitga yo'naltirishi mumkin.

Buni yaxshi angalgan Nodirbek Soyibnazarov chet elda bo'lib turgan yoshlar bilan aloqani uzmaslikka e'tibor qaratdi. Ular bilan ijtimoiy tarmoqlar, otalonlari orqali doimiy muloqotda bo'lib, yurtidagi yangiliklardan xabardor qilib bordi. Har birining holati "Yoshlar balansi" axborot platformasida qayd etilib, har chorakda monitoring o'tkazildi.


Migratsiyadan qaytgan yoshlarni jamiyatga qaytarish uchun quyidagi bosqichli yondashuvni ishlab chiqdi:



2025-YIL OXIRIGACHA KUTUBXONA FONDI 2000 KITOBGACHA YETKAZILADI, RAQAMLI KUTUBXONA VA ELEKTRON O'QUV ZONASI TASHKIL ETILADI.

Nodirbek Soyibnazarovning harakatlar rejalari mahalladagi yoshlar hayotini tubdan o'zgartirish, ularni jamiyatning faol, ijtimoiy mas'uliyatli a'zolariga aylantirishga xizmat qiladi.

Mahalladagi bugungi sog'lom ijtimoiy muhit, yoshlarning bandligi, jinoyatchilikning keskin kamayishiga Nodirbek Soyibnazarovning mehnati mahsuli sifatida qaralmoqda. Zero jamiyat taraqqiyotida asosiy resurs insondir. Inson bilan ishlash olgan yetakchi esa eng oliy mukofot – xalq ishonchiga sazovor bo'ladi.



YOSHLARNI ESHITAMIZ

24-iyul kuni Toshkentdagi Yoshlar ijod saroyi-qot maydonining ilk uchrashuvi o'tkazildi. Yosh tadbirkorlar, davlat idoralari vakillari, turli tashkilot rahbarlari hamda tajribali ishbilarmonlar ishtirok etgan uchrashuv Prezident Shavkat Mirziyoyevning 30-iyun kuni yoshlar bilan o'tkazgan ochiq muloqotida ilgari surilgan tashabbuslari asosida tashkil etildi. Rejaga ko'ra, yilning ikkinchi yarmida sohalar kesimida yoshlarga yo'naltirilgan shu kabi muloqotlar bosqichma-bosqich o'tkazib boriladi.

Dastlabki uchrashuvda asosan tadbirkorlik yo'nalishida faoliyat yuritayotgan yoshlar ishtirok etdi. Ularning amaliy muammo va takliflari tinglanib, mas'ul vazirlik va idoralar vakillari bilan bevosita muloqotda muhokama qilindi. Tadbirkorlik muhitini rivojlantirishga qaratilgan fikr va tavsiyalar bildirildi.

Muloqot onlayn va oflayn shaklda o'tkazildi. 14 ta studiya (1 ta markaziy va 13 ta hududiy)

“MUROJAATLAR MAS'ULLARGA YO'NALTIRILDI VA IJROSI USTIDAN NAZORAT O'RNATILDI.”

orqali jami 400 nafardan ziyod yosh qatnashdi. Xorijda yashayotgan 40 nafar vatandosh yosh ham Zoom orqali ulanib, o'z savollarini yo'llash imkoniyatiga ega bo'ldi. Uchrashuvga tayyorgarlik jarayonida yoshlar Telegram bot orqali o'z murojaat va takliflarini oldindan yuborgan. Murojaatlar moderatorlar tomonidan eifirda o'qib eshittirildi, mas'ullarga yo'naltirildi va ijrosi ustidan nazorat o'rnatildi.

Tadbirida 30 yoshdan oshgan tajribali tadbirkorlar maxsus mehmon sifatida ishtirok etdi. Ish-tirokchilar uchun networking va kofe breyk maydoni ham tashkil etildi. Ochiq muloqotda Yoshlar ishlari agentligi, Savdo-sanoat palatasi, Davlat soliq qo'mitasi, Turizm qo'mitasi, Investitsiya, Adliya va Raqamli texnologiyalar vazirliklari, Markaziy bank, "Aloqabank", "Milliy bank", "Yoshlar – kelajagimiz" hamda Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish jamg'armalari vakillari qatnashdi.

Muloqot Yoshlar ishlari agentligining YouTube sahifasida jonli eifirda yoritildi. Bildirilgan takliflar asosida davlat rahbariga axborot kiritilishi belgilangan.

OLTINCHI OMMAVIY

Davomi. Boshlanishi 1-sahifada.

HAR DAQIQADA
BITTA O'RMON YO'Q
QILINMOQDA

Dunyodagi biologik xilma-xillikning katta qismi tropik o'rmonlarda joylashgan. Ammo statistik ma'lumotlarga ko'ra, insoniyat allaqachon bu o'rmonlarning yarmini yo'q qilgan. Ularni tiklashga esa yuz yillar vaqt kerak. BMFning 2020-yilgi FAO hisobotida 1990-yildan 2020-yilgacha 420 million gektar o'rmonzor yo'q bo'lgani haqidagi taxmin qayd etilgan. Bu hajm taxminan Hindiston hududiga teng. 2024-yilgi Global Forest Watch hisobotiga ko'ra, har daqiqada 18-27 ta futbol maydoniga teng o'rmon yo'q qilinmoqda. Bu raqam faqatgina yo'qotilgan daraxtlarni emas, balki ularning atrofidagi ekotizimlarni, unda yashovchi hayvonot va o'simlik dunyosini ham o'z ichiga oladi.

Bundan tashqari, kunda-kunora shahardagi daraxtlarning kesilayotgani haqidagi xabarlar ham quloqqa chalinadi. Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 22-avgustdagi 464-sonli "Davlat o'rmon fondiga kirmaydigan daraxtlar va butalarni ekish, parvarish qilish va ulardan foydalanish tartibini yanada takomillash-tirish to'g'risida"gi qarorida daraxt va butalarni qonunga xilof ravishda kesganlik, kunda-kov qilganlik, shikastlantirganlik, yo'q qilganlik yoki ko'chirib o'tkazganlik uchun aybdor shaxslar javobgarlikka tortilishi belgilangan.

Yaqinda Savdo-sanoat palatasi tashabbusi bilan o'tkazilgan tadbirkorlar uchrashuvida qurilish sohasida allaqachon o'z brendini shakllantirgan Murod Nazarovning bildirgan fikrlari ijtimoiy tarmoqlarda keng tarqaldi va muhokamalarga sabab bo'ldi. Masalaga Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi rasmiy bayonot bilan javob berdi. Unga ko'ra, M. Nazarovga qonunchilikdagi ayrim qoidalar eslatib o'tilgan. Jumladan, O'zbekistonda:

- 2024-yilda yashil hududlarni yo'q qilish bo'yicha javobgarlik kuchaytirilgan;
 - Prezident farmoniga muvofiq daraxt kesishga cheklanmagan moratoriy belgilangan;
 - 2023-yildagi hujjatga ko'ra, qurilish maydonining kamida 25 foizi ko'kalamzor bo'lmasa, obyekt foydalanishga topshirilmaydi;
 - 2025-yil esa "Atrof-muhitni asrash va yashil iqtisodiyot yili" deb e'lon qilingan.
- Bugungi ekologik halokatga tobora yaqinlashib borayotgan paytda tabiatni asrash va ushbu muammoga hech qanday ziyonsiz yechim topish muhim. Buzib qayta tiklashni taklif qilish emas, borini asrashni va yangi bog' yaratish tashabbusini ilgari surish zarur. O'rmonlar va daraxtlarning yo'qolib borishi faqat hayvonlarga emas, iqlim o'zgarishiga ham katta ta'sir o'tkazadi.

qirilish



IQLIM O'ZGARISHI VA
GLOBAL ISISH

So'nggi yillarda insoniyat duch kelayotgan eng jiddiy ekologik muammolardan biri – global isish, ya'ni sayyoradagi o'rta haroratning ko'tarilishi. Ayniqsa, yoshi kattalarning qon bosimi tez-tez o'zgarib, ba'zan ko'tarilib, ba'zan tushib ketishi kabi salbiy oqibatlarni keltirib chiqarmoqda. JSST ham jazirama issiqdan saqlanish usullarini e'lon qilib, aholiga ogohlantirishlar berdi. Ushbu jarayonning asosiy sababi atmosferadagi gazlar, xususan, karbonat angidridning ko'payib borayotganidir. Bu gazlarning tabiiy yo'l bilan yutilishida o'rmonlar asosiy rol o'ynaydi. Ammo o'rmonlarning keng ko'lamda kesilishi bu jarayonni izdan chiqarmoqda.

Daraxtlar karbon gazini yutish bilan birga bug'lanish va transpiratsiya orqali havo namligini saqlaydi. Bu esa o'rmonli hududlarda ob-havoni barqarorlashtiradi. Ma'lumotlarga ko'ra, tropik o'rmonlar, masalan, Amazonka global miqyosdagi iqlim muvozanatini ushlab turadigan asosiy "hamlik nasoslari" hisoblanadi. Ammo bu hududlarning keng ko'lamda yo'q qilinishi bug'lanishni keskin kamaytiradi. Natijada yog'ingarchilik kutilmaydi va tabiiyki, qurg'oqchilik yuzaga keladi.

NASA ma'lumotlariga ko'ra, Amazonka o'rmonlarining 20 foizdan ortig'i yo'qolsa, bu hudud qurg'oqcho'lek otizimiga aylanib ketadi.

“YO'VVOYI HAYVONLARNING O'RTACHA POPULYATSIYASI 68 FOIZGA KAMAYGAN.”

OMMAVIY YO'QOLISH

Olimlar bugungi davrni "Antropotsen" deb atamoqda, ya'ni inson ta'siri bilan shakllangan geologik davr. Ushbu davrda sut emizuvchilarning 96 foiz biomassasi odamlar va uy hayvonlaridan iborat, o'simliklar va yovvoyi hayvonlar biomassasi esa keskin kamaygan.

Ayniqsa, qushlar, amfibiyalar, hasharotlar yo'qolishi kuzatilmog'da. 2020-yilgi WWF "Living Planet Report"ga ko'ra, 1970-yildan beri yovvoyi hayvonlarning o'rtacha populyatsiyasi 68 foizga kamaygan.

Faktlardan kelib chiqib xulosa qilsak, bugungi kunda insoniyat ekologik muvozanatni saqlash o'rniiga bir qancha muammolar keltirib chiqarmoqda. Ko'pchilikni qiynayotgan global isish, iqlim o'zgarishi hamda daraxtlarning kesilishi oltinchi ommaviy qirilishning asosiy sababi desak, yolg'on bo'lmaydi. Bu jarayonning oqibatlari faqat hayvonot va o'simlik dunyosiga emas, biologik tur sifatida insoniyatning o'ziga ham tahdid soladi.

NAVOIYLIK YETAKCHILAR TASHABBUSI



Mahalladagi yoshlar yetakchilarining tashabbusi bilan yoshlarga ta'lim olish, xorijiy tillarni o'zlashtirish va munosib kelajak sari yo'l ochish borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Shunday tashabbuslardan biri Navoiy viloyatida kuzatildi.


Viloyatdagi faol yetakchilar harakati bilan ehtiyojmand oila farzandlariga xorijiy tillarni o'rganish imkoniyatini beruvchi bepul kurslar yo'lga qo'yildi. Loyiha doirasida 100 nafar ehtiyojmand oila farzandi ingliz tilini bepul o'rganish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Bu tashabbus yoshlarning bilim olishga intilishini qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy tenglikni ta'minlash va ular orasida xorijiy tillarni egallash imkoniyatini kengaytirishga qaratilgan.

Darslarni malakali ingliz tili o'qituvchilari olib bormoqda. Interaktiv uslubda, zamonaviy metodikalarga tayangan holda mashg'ulotlar tashkil qilinib, o'quvchilar o'zlashtirish darajasiga qarab bosqichma-bosqich yondashuv joriy etilgan.

Loyiha ehtiyojmand oilalar uchun katta imkoniyat bo'lishdan tashqari mahallalarda yoshlar bilan ishlashda yangi yondashuv va ijobiy tajriba bo'lmoqda. Yil yakuniga qadar bu kabi bepul ta'lim loyihalarini yanada kengaytirish rejalashtirilgan.

Elyor IKROMOV,
Navoiy shahridagi Oltin vodi mahallasi
yoshlar yetakchisi

Onlayn o'quv seminar



O'zbekiston yoshlar yetakchilarini qo'llab-quvvatlash markazi tashabbusi bilan respublika bo'yicha barcha mahalla yoshlar yetakchilari ishtirokida "Yetakchi kim? Yetakchining vazifalari va mega loyihalar tahlili" mavzusida onlayn o'quv seminari tashkil etildi.

Seminarda markaz rahbariyati, ilg'or tajriba to'plagan yoshlar yetakchilari hamda Yoshlar ishlari agentligi mas'ul xodimlari ishtirok etdi. Dastlab seminar qatnashchilariga markaz faoliyati, xodimlarining funksional vazifalari haqida ma'lumot berildi. Seminarining asosiy qismi "Yoshlar yetakchisi kim?" degan savol atrofida tashkil etilib, yetakchi muayyan vakolatga ega mutasaddi, har bir yoshning hayotiy muammolariga befarq bo'lmagani, orzu va intilishlariga tigrak bo'la oladigan, tashabbuskor, mas'uliyatli va faol shaxs bo'lishi kerakligi ta'kidlandi.

Seminarda yoshlar yetakchisining quyidagi asosiy vazifalari muhokama qilindi:

- yoshlar muammolarini o'rganish va hal etish choralarini ko'rish;
- yoshlarni ijtimoiy hayotga jalb etish, ularning faolligini oshirish;
- yoshlarga oid davlat dasturini hududlarga yetkazish;
- yoshlar orasida huquqbuzarlik, ishsizlikning oldini olishga qaratilgan profilaktik ish-larni kuchaytirish.

Tadbir doirasida Yoshlar ishlari agentligining yoshlarda katta qiziqish uyg'otayotgan "Mutolaa", "UzChess", "Ustoz AI", "Ibrat farzandlari" va "Qizlar akademiyasi" kabi yirik loyihalarini targ'iboti masalalari muhokama qilindi. Mahalladagi yoshlar yetakchilari ko'magida ushbu loyihalar qay darajada om-malashayotgani, statistika natijalari taqdim etilib, past ko'rsatkichga ega hududlar yetakchilariga aniq tavsiya va maslahatlar berildi.

Seminarda barcha ishtirokchilar faollik va tashabbuskorlikka chorlandi. Mahalla darajasidagi ijtimoiy o'zgarishlar aynan yoshlar yetakchilarining tashabbusi va fidoyiligi bilan amalga oshayotgani alohida ta'kidlandi.

Muborak MAMUTOVA,
Yoshlar yetakchilarini qo'llab-quvvatlash
markazi loyiha menejeri

BOG'ZORDA ISHSIZLIKKA ARHAM BERILADI

Davomi. Boshlanishi 1-sahifada.



Yil boshida mahalladagi barcha yoshlar xatlovdan o'tkazilib, "Yoshlar balansi" shakllantirildi. Shu asosda ular "og'ir" (11 nafar), "o'rta" (499 nafar) va "yaxshi" (1054 nafar) toifalarga ajratildi. "Og'ir" toifadagi yoshlarga alohida e'tibor qaratilib, ularni qo'llab-quvvatlash uchun shahar maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi mudiriga birlashtirildi hamda yo'l xaritasi ishlab chiqildi. Natijada:

- 11 nafar ishsiz yosh ish bilan ta'minlandi;
- 1 nafar yigitga harbiy xizmat badali uchun 5 million so'm to'lab berildi;
- 8 nafar yoshga imtiyozli kreditlar ajratildi;
- "Yoshlar daftari"ga kiritilgan 27 nafar ijtimoiy himoyaga muhtoj yoshga 56 million so'mlik yordam ko'rsatildi;
- jinoyat sodir etishga moyil yoshlar bilan yakka tartibda ishlash yo'lga qo'yildi.

Shuningdek, 11506-harbiy qism koman-diriga otaliqqa berilgan 10 nafar yosh bilan maqsadli ishlash natijasida ularning hayotiga qarashlari tubdan o'zgardi.

Bog'zor mahallasida yoshlar muammolariga tizimli yondashuv joriy etilib, har oyda sektor rahbarlari, tegishli tashkilotlar, hokimlik vakillari va yoshlar o'rtasida ochiq muloqotlar o'tkazib kelinmoqda. Muloqotlarda yoshlar bildirgan 22 ta muammo to'liq hal qilindi.

Mahalla yoshlar yetakchisi Laylo Meng-to'rayevaning tashabbusi bilan 20 nafar yosh dizayner jamoasi shakllantirilib, "Milliy liboslar festivali" tashkil etildi. Tadbirga 2000 dan ortiq yosh jalb qilindi. "Milliy liboslarimizni zamonaviy talqinda ommalashtirish" aksiyasi va "Yoshlar sog'lom hayotni tanlaydi!" shiori ostidagi targ'ibot tadbirlari respublika bo'yicha namunali loyiha sifatida e'tirof etildi.

YUTUQLARGA BOY YIL

2025-yil Bog'zor mahallasi yoshlari uchun yutuqlarga boy, tarixiy yil bo'ldi. Faol yoshlardan biri Gulruxsorabegim Abdusaidova Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti sohibasi bo'lish bilan birga dunyoning eng nufuzli oliy ta'lim muassasalaridan biri "UC Berkeley School of Law LL.M." magistratura dasturiga ham qabul qilindi.

Dilshod Ismatov esa Surxondaryo viloyatida birinchilardan bo'lib IELTS imtihonidan 9 ball to'pladi. Bu natija mahalla yoshlari orasida ingliz tilini o'rganishga qiziqishni sezilarli oshirdi. Gulmira Ismoilova Navoiy nomidagi Davlat stipendiyasiga sazovor bo'ldi. Mahallaning yana bir faxri Davron Omonov hozir eng yosh dotsent sifatida ilm-fan va ta'lim sohasida faoliyat yuritmoqda.

Yoshlar ishlari agentligi tomonidan amalga oshirilayotgan loyihalar ham mahalla yoshlari orasida keng qamrovga ega bo'ldi. "Qizlar akademiyasi"da 120 nafar yosh xotin-qiz marketing, grafik dizayn, huquq va boshqa zamonaviy kasblarga o'rgatildi. "Ibrat farzandlari"da 1210 nafar yosh xorijiy tillarga o'qitilmog'da. "Ustoz AI"da 302 nafar yosh zamonaviy kasblarni onlayn o'rganyapti. "Yosh kitobxon" tanloviga 210 nafar, "Mutolaa"da 780 nafar kitobxon yosh munosib rag'batlantirildi.

Bog'zorda amalga oshirilgan ishlar davlatimizning yoshlarga oid siyosati amalda ro'yobga chiqayotganini ko'rsatadi. Ishsizlikni kamaytirish, yoshlarning salohiyatini kashf etish va ularni rag'batlantirish tizimi nafaqat mahalla, balki butun respublika uchun ibrat bo'la oladi.

Nargiza MUSAYEVA,
Surxondaryo viloyati yoshlar ishlari
boshqarmasi matbuot kotibi

Cookie fayllar

SIZ ULARGA ROZILIK BERGANMISIZ?



Avval veb-saytlar qanday ish-lashini bilib olaylik. Saytda bajargan har bir amalingizni qurilmangiz tekzor ravishda serverga so'rov sifatida yu-boradi. Ya'ni siz asosiy men-yuga qaytishni bossangiz, telefoningiz veb-saytning serveriga – uning barcha ma'lumotlari saqlanadigan kompyuterga "Biz asosiy sa-hifaga kirsak bo'ladimi?" degan savolni yuboradi (raqamli tarzda). Bunga javoban server qurilmangizga kerakli havo-lani jo'natadi. Sizning saytdan foydalana olishingiz mana shu qurilma va server o'rtasidagi muloqotga asoslanadi.

Cookie fayllar esa shu muloqot davomida siz haqingizdagi ma'lumotlar yig'indisi. Deylik, siz saytdan ro'yxatda o'tdingiz, sizning login va parolingiz, amalga oshirgan o'zgarishlaringiz, nimalarni yoqtirib yoki yoqtirmaganingiz kabilar saqlanadi. Qisqa qilib aytganda, bular sizning keyingi tashrifingizda sayt sizni tanib olishi uchun kerakli ma'lumotlar.

Bu nega kerak o'zi? Tarmoq xatosi orqali saytdan uzilib qolganingizda barchasini yana boshidan boshlamasdan kelgan yeringizdan davom ettirishingizga, onlayn do'kon-larda savatchaga saqlab qo'ygan buyumlaringiz joyida turishiga, sizga mos reklamalar ko'rsatilishi va saytning statistikasida muhim o'rin tutadi. Lekin barcha foyda-lanuvchilarning ma'lumotlarini saqlash serverga og'ir-lik qilgani uchun ularni har bir abonentga alohida takror-lanmas ID bilan paket ko'rinishida sizning qurilmangizga yuboradi. Har safar siz saytga so'rov yuborganingizda sizga tegishli cookie fayl paketini ham birga yuborasiz.

Cookie fayllarning ham bir necha turi bo'lib, ular ik-ki guruhga bo'linadi: birinchi tomon cookie fayllari (first-party cookie) va uchinchi tomon cookie fayllari (third-party cookie). Birinchi tomon cookie fayllari aso-san veb-sayt egasi tomonidan joylashtirilib, undan statis-tika uchun foydalanishadi. Masalan, foydalanuvchi sayt-ning qaysi bo'limida ko'proq vaqtini o'tkazaypti, qan-day mahsulotlar unga ma'qul bo'lyapti, saytning ishlash tizimidan qoniqayptimi-yo'qmi kabi.

Quyida esa keng tarqalgan cookie fayllarning turlari bilan tanishamiz.

Session cookie (seans cookie fayl-lari). Bu turdagi fayllar faqatgina sayt faol holatidagina ishlaydi, oynani yopishingiz bilan u avtomatik tarzda o'chiriladi. Qisqa vaqt mobaynida ish-latilsa ham, u sizning tizimdan uzilib qolmasligingizni, bajargan amallar ketma-ketligingizni, seans davomida bajargan harakatlaringizni kuzatish uchun qo'llaniladi.

Persistent cookie (doimiy cookie fayllar). Hech sizda kuzatilganmi, ol-din ro'yxatdan o'tgan saytingizdan birdaniga chiqib ketgan, sizni tani-magan holatlar? Bu aynan mana shu doimiy cookie fayllari orqali bo'lishi mum-in. Chunki foydalanuvchiga be-riladigan ID bilan birgalikda uning ishdan chiqish muddati ham yozilgan bo'ladi. Bu bir necha daqiqadan bosh-lab oylargacha davom etishi mum-kin. Muddati tugagandan so'ng uni yana qayta shakllantirish kerak bo'la-di. Vaqti nisbatan ko'pligi uchun ham u o'z ichiga uzoq muddatli ma'lu-motlarni – login va parollarni, sayt-da siz amalga oshirgan o'zgarishlarni (masalan, tili yoki orqa fon) va mos-lashtirilgan reklamalarni oladi.

The secure cookie (xavfsizlik cookie fayllari). Bu turdagi fayl ham tizim-ga ro'yxatga kirganingizda ochilib, shaxsiy ma'lumotlaringiz, bank karta raqami, telefon raqamingiz kabilarni saqlaydi. Undan esa faqat saytning o'zi foydalana olish huquqiga ega.

Uchunchi tomon cookie faylla-ridan kompaniyalar o'z mahsulotlari reklamasida foydalanadi. Uning aso-siy maqsadi internet foydalanuvchi-larini kuzatish bo'lib, reklamalarni sayt egasi emas, o'z nomi bilan – uchinchi shaxs joylaydi. Qanday qilib? "Paxmoq xursandchilik" nomi bilan ishlaydigan o'yinchoqlar firmasini misol qilib olamiz. Uning auditori-yasi kichikligidan o'zining ijtimoiy tarmog'ida yoki sayti-da yetarlicha ko'rishlar soni, xaridorlar yig'ilmayapti. Bu maqsadga erishish uchun endi u yirik reklama platforma-si bo'lgan "Google Ads"ga kirib, o'z mahsuloti reklamasini ma'lum haq evaziga joylaydi. "Google Ads" esa o'zi hamkor-lik qiladigan saytlarga odamlarning qiziqishi, joylashuvi va reklama beruvchining to'lovini inobatga olib joylashtiradi. Biron bir chet el saytiga kirganingizda mahalliy reklama-larga ko'zingiz tushgan bo'lsa kerak? Xuddi o'sha reklama boshqa saytga o'tganingizda ham oldingizdan qayta-qayta chiqib kela boshlasa, demak, reklama beruvchi kompaniya sizga cookie fayllarni yuklagan bo'ladi.

Agar siz shu paytgacha bir qancha cookie fayllarga ro-zilik bergan bo'lsangiz-u, endi ularni o'chirib tashlash fikri uyg'ongan bo'lsa, buning iloji bor. Agar siz Chrome brau-zerini ishlatadigan bo'lsangiz, sozlamalarga kirib, "Maxfiy-lik va xavfsizlik" bo'limini tanlang. Undan so'ng "Brauzer ma'lumotlarini o'chirish"ni tanlab, "Cookie fayllari va sayt ma'lumotlari"ni belgilab o'chirishingiz mumkin. "Maxfiy-lik va xavfsizlik" bo'limidan "tashqi cookie fayllari"ga ki-rib, uchinchi tomon cookie fayllarini bloklab qo'yishingiz mumkin. Safaridan foydalansangiz, "Sozlamalar"ga kirib, ilovalardan Safari'ni tanlang. "Qo'shimcha" bo'limiga o'tib, "Sayt ma'lumotlari"ga kirsangiz, siz haqingizda ma'lumot-to'ga ega saytlar chiqadi. Ulardan o'zingizga keraksiz deb hi-soblaganlaringizni o'chirishingiz mumkin. Uchinchi to-mon cookie'larini bloklamoqchi bo'lsangiz, ilovadan "Sayt-lararo kuzatuvning oldini olish" funksiyasini yoqib, "Bar-cha cookie fayllarni bloklash"ni tanlang.

Cookie fayllar zamonaviy internetning ajralmas qis-miga aylangan. Bu texnologiya saytlarning tez va samara-li ishlashiga yordam beradi. Ular haqida tushunchaga ega bo'lish foydalanuvchi madaniyatining bir qismidir. Coo-kie fayllar orqali to'plangan yozuvlar ichiga sizning shax-siy ma'lumotlaringiz ham kirgani sababli har bir foyda-lanuvchi o'z axborot xavfsizligiga e'tibor qaratishi lozim.

Mehriniso TOJIBOYEVA,
O'zDJTU talabasi

“VIJDONSIZ” ODAM

Doston USMONOV



Chap qo'li qaltiroq ki-shi shifokor huzuri-ga kirib keldi. Bosh da o'rnidan sapchib turib haydamoq-chi bo'ldi-yu, hamkasblar orasida kat-ta obro'ga egaligi yodiga tushib o'zini bosdi. U shifokorning yuzidagi asabiy-likni ilg'asa-da, o'zini beparvo tutib, betiga qayg'u-alamini qo'ndirdi. Shi-fokor taklifini kutmay, o'rindiqqqa joy-lashib oldi va darrov muddaoga o'tdi.

– O'rtoq do'xtir, – so'zlariga qayg'u ohangini singdirib, zo'r berib boshladi, – men og'ir kasal bo'lsam, nega kasal-xonangizdan joy bermayapsiz? Tahlil javoblariga ishonmayman, tanamda-gi o'zgarishlar faqat o'zimga ayon. Yana muolaja qilishingizni istayman.

Bosh shifokor uning qo'liga razm solib, miyig'ida kulib qo'yd.

– Birodar, siz soppa-sog'siz. Tahlil javobi hech qachon aldamaydi. Qo'li-ngizga kelsak, ataylabdan qilyapsiz. O'n ikki kundan beri bu yerda davolanasiz, hech tuzalmaysiz, bu nima degan gap? Kasalxona sizga mehmonxona emas-ku, istaganingizcha turaversangiz.

– Aslo, do'xtir, men rostdan betob-man. Hali to'liq tuzalmadim. Qarang, negadir o'ng qo'lim ham qaltirashni boshlayapti, – deb qo'liga ishora qildi.

– Ha, siz chindan ham sog' emas-siz... Hamshira, qarab yuboring! – deb o'shqirdi eshikka qarab.

Ostonada hamshira paydo bo'ldi. – Bu kishini yana o'z palatasiga joy-lashtirib, 2-3 kundan so'ng javob berib yuboring, – dedi o'zini tutib.

– Rahmat, do'xtir. Tushungan odam ekansiz. Yana uzoqroq vaqt qo-lishimga ruxsat bersangiz!

Peshonasini tinmay artayotgan shifokor unga ilkis hayratlanib qarab qoldi va o'rnidan turib o'shqirdi:

– Yo'qol, yaramas!..

Hamshira uni palataga boshlab kirdi.

– Xonani darrov tozalab qo'yibsiz-lar-ku, – deb karavotga o'tirib, hamma yoqni ko'zdan kechirdi.

– Nega kasalxonada qolmoqchi bo'lyapsiz? Bemorlar kun sanab, bu yerdan ketadigan kunni intiqib kuta-di. Sizga bu yerning nimasi qiziq?!

U javob bermay, qo'llarini oyoqlari orasiga olib o'tirardi. Bir vaqt ham-shira ortiga qayrilib ketayotganida u o'rnidan turib:

– Meni hech kim so'rab kelma-dimi? – dedi.

– Hech kim kelgani yo'q. Kimdir kelish kerakmi?

– Ha.

– Kim?

U yana javob berishni istamay, ka-ravotga yotib oldi. Hamshira uning sirli harakatini tushunolmadi va chiqib ket-di. U xonada yolg'iz qoldi. Qayerdan-dir shovqin eshitildi, boshini ko'tarib te-

TIL BILIMI

VARIANTDOSH (DUBLET) SO'ZLAR

Til rivojlanishi jarayonida ay-rim so'zlarning ikki xil shakli adabiy til doirasiga kirgan. Bunday so'zlarga *variantdosh* yoki *dublet so'zlar* deyila-di. Bunda so'zning nutqda ifodalanishi yoki shevalardagi ko'rinishi, chet-dan kirgan so'zlarning asl holati va o'zgargan shakli dublet so'zlar sifatida tavsiflanadi.

Masalan, *nevara* – *nabira*, *biror-ta* – *bironta*, *baravar* – *barobar*, *mas-jid* – *machit*, *ajdaho* – *ajdarho*, *kaptar* – *kabutar* kabi so'zlar variantdosh hi-soblanadi.

XAY VA HAY

O'zbek tili imkoniyatlari keng va jozibali ekaniga yana bir isbot. Oddiy muloqotda ishlatiladigan *xay* va *hay* so'zlari ham bir-biridan yaxshigina farqlanadi.

Xay – arabcha *xayr* so'zidan olin-gan bo'lib, voqea-hodisaga, suhbat-doshning fikriga va shu kabilarga yax-shilik tilash, ijobiy munosabat, rizolik ma'nosida keladi.

Hay so'zi ham xay bilan deyarli bir xil holatda ishlatiladi, lekin bunda ijobiylik kam. Bu so'z voqea-hodisaga, suhbatdoshning fikriga rozilikni, qar-shi emaslikni, bee'tiborlik va beparvo-lik bilan tasdiqlashni bildiradi. Undov so'z sifatida ham ishlatiladi.

IMLOVIY XATOMI YOKI YO'Q?

Bo'pti, hammasiyammas, buni-yam, senam, menam kabi qisqartma-larni nutqda ko'p ishlatamiz. So'zlar-ning bunday shakli tilshunoslikda *te-jam* deb ataladi.

Tejam – so'zlovchining ruhiy, jis-moniy quvvatini, vaqtini tejash, or-tiqchalikni bartaraf etish ehtiyojidan kelib chiqqan umumlisoniy qonuni-yat.

Rasmiy va ilmiy uslubda tejam-larni ishlatish xato bo'ladi. Lekin ba-diiy asarda, so'zlashuv uslubida te-jamlarning qo'llanishini xato deya ol-maymiz.

Ammo tejam va imloviy xato-ni chalkashtirish holatlari ham ko'p uchraydi. Masalan, "bo'libdi" so'zini "bo'pti" shaklida ishlati, tejam bo'la-di, lekin "bo'lipti" shakli – xato, bun-da hech qanday tovush yoki harf teja-lishi yo'q.

KOMPANIYA YOKI KAMPANIYA?

Ikkiisi ham to'g'ri, ammo bu so'zlar variantdosh emas – boshqa-boshqa ma'nolarni anglatadi. Hatto yetakchi OAVlarda ham bu so'zlar adashtirilib, aksar holatda "*kompaniya*" so'zi ishla-tiladi. Xo'sh, qanday farqlanadi?

Kompaniya – savdo, sanoat, trans-port yoki boshqa sohada iqtisodiy faoliyat olib boruvchi yuridik va jis-moniy shaxslar, ishbilamonlar bir-lashmasi.

Kampaniya – muhim ijtimoiy, si-yosiy, harbiy yoki xo'jalik ahamiyati-ga ega bo'lgan biror vazifani bajarish uchun ma'lum davrda safarbarlik yo'li bilan o'tkaziladigan ishlar, ko'riladi-gan tadbir-choralar tizimi.

Masalan: *urush kampaniyasi*, *Ap-ple kompaniyasi*.

KAMROQ ISHLATINGIZ!

Sizga ham metro eshidigadi "*Il-timos suyanmangiz*" degan jum-la g'aliz tuyulganmi? Tilshunoslik-da bu *pleonazm* deyiladi, ya'ni or-tiqchalik. Yuqoridagi misolda ham ko'plik va hurmat ma'nosini shundoq ham bo'lgan *suyanmang* so'ziga yana *-ingiz* qo'shimchasi qo'shilgan.

Tilimizda bunday holat ko'p ku-zatiladi. Ba'zilar shu qadar singib ketganki, bilinmaydi ham: *bir-i-si, kel-ingiz-lar* kabi. Shuning uchun ham pleonazmlarni xato deb bo'lmay-di, ular tilimizning bir bo'lagiga aylan-gan. Lekin sifati matn – ortiqcha so'z va qo'shimchalardan xoli matn. Shun-day ekan, ulardan imkon qadar foyda-lanmagan ma'qul. Kamroq ishlatilg!

Tahrirchi.uz sahifasidan olindi.

O'ZBEKISTON YOSH FOTOGRAFLAR NIGOHIDA



Toshkent fotosuratlar uyida tur-li millat bolalari – 9 nafar yosh-ning olgan fotosuratlaridan tashkil topgan ko'rgazma faoliyat boshla-di. Unda reportaj, portret, manzara, pred-met va hujjatli fotosurat janrlarida mam-lakatimiz fotostudi, manzarasi, shaharlari, odamlari, sporti va boshqa turli voqealar aks etgan.

Ko'rgazmadan o'rin olgan "Keng-liklarda adir bolasi", "Sentabr, dala ishi-dan qaytish", "Oxirgi umid", "Teng sha-roitda", "To'siq yengildi", "Shiddatli o'yin", "Jamo'a bu – kuch", "Oqayotgan vaqt", "Toshlar bag'rida hayot", "O'zini tutib turgan kuch", "Ispan qishlog'i", "Tovoq-soy" kabi fotosuratlar tomoshabinlarda katta qiziqish uyg'otmoqda.

Hasan ABDUNAZAROV

YOSHLAR OVOZI
BIZ – KELAJAK BUNYODKORIMIZ!

Muassis:
O'zbekiston yoshlar ittifoqi
Markaziy Kengashi

Bosh hamkor:
O'zbekiston Respublikasi
Yoshlar ishlari agentligi

Bosh muharrir:
Hamza ABDULLAYEV

Mas'ul muharrir:
Muhammadshukur MUHAMMADJONOV
Navbatchi muharrir:
Shahobiddin LUQMON

Fotograf:
Xolida MUSULMON

Gazeta O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 2020-yil 11-dekabrda № 0242 raqami bilan qayta ro'yxatdan o'tgan. Gazeta materiallari tahririyat kompyuter markazida terildi va sahifalandi. Tahririyat manzili: 100000, Toshkent, Mustaqillik shoh ko'chasi, 2. Telefon: (71) 233-22-16.

/yoshlarovozi

/yoshlarovozi

/yoshlarovozi.uz

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi boshmaxonasida, A-2 formatda chop etildi. Hajmi – 2 bosma taboa. Korxona manzili: Buyuk Turon ko'chasi, 41. Indekslar: 203, 3203. Bahosi kelishilgan narxda. Buyurtma G-708, Adadi – 10395. Bosishga topshirish vaqti – 21.00. Topshirildi – 20.00

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.

